



BUGALTERIYA HISOBINI MODERNISATSIYA QILISH YO'LLARI.

A'zamova Aziza Olimjon qizi

TOSHKENT VILOYAT TOSHKENT TUMANI TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10836684>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-mart 2024 yil

Ma'qullandi: 17-mart 2024 yil

Nashr qilindi: 19-mart 2024 yil

KEY WORDS

Buxgalteriyani – biznesning tili, tarmoq xususiyatlari, moddiy manfaatdorlik.

ABSTRACT

Mazkur maqola bugalteriya hisobini modernisatsiya qilish yo'llari va buxgalteriya hisobining tashkil qilinishi, ularning faoliyatida hisob ishlarining yuritilishi bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar asosida tuzilgan bo'lib, amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlarga muvofiq hamda Davlat ta'lim standartlariga mos ravishda tayyorlandi

Kirish: O'zbekistonning mustaqil yuksalishi mobaynida qilingan ishlarni sarhisob qiladigan bo'lsak, ulkan yutuqlar qo'lga kiritilganligining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, «Buxgalteriya hisobi» sohasida ham keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi buxgalterlari va auditorlari milliy assotsiatsiyasi tomonidan buxgalteriya hisobining tamoyillarini rivojlantirish maqsadida bir qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda.

Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinishi, ular bo'yicha xalqaro talablarga javob beradigan milliy standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlar yaratilishini nazorat qilishi, milliy standartlarining buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga transformatsiya vatanimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida katta ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida berilayotgan iqtisodiy bilimlar ichida muhim o'rinlardan birini buxgalteriya hisobi egallaydi. Chunki, buxgalteriyani – biznesning tili deyilar. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, marketingdek, menejmentdek ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatlarini iqtisodiy axborotlar bilan ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi.

Asosiy qism: Buxgalteriya hisobi — bu, kundalik va umumiy ma'lumotlar olish maqsadida ayrim korxona, hissadorlik jamiyati, muassasa, tashkilot va boshqalarning xo'jalik faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimidan iboratdir. Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni to'liq, ishonarli, o'z vaqtida tuzilgan moliyaviy va buxgalteriya hisobining boshqa axborotlari bilan ta'minlashdan iborat.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobini modernizatsiya qilishga qo'yilgan eng asosiy talab – bu, uning kam xarajatli va sodda bo'lishidir. Korxonada hisob ishlari ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi yuqori samaraga hamda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Buning uchun eng avvalo, har bir korxonaning o'ziga xos tarmoq xususiyatlarini va boshqa jihatlarini chuqur o'rganish lozim. Har bir korxonada tashkil etilgan buxgalteriya hisobi xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'layotgan xo'jalik muomalalarini uzluksiz kuzatish va uning natijalarini son ko'rsatkichlarida ifodalash, keyin ularni yoppasiga maxsus hujjatlarda aks ettirishni ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda korxona biznes-rejasini va kelgusidagi strategik dasturlarini tuzishda zarur axborot bilan ta'minlashi va ularning bajarilishi ustidan muntazam ravishda nazorat olib borishi kerak.

Buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tizimini tashkil qilishning aniq yo'nalishi bo'yicha subyektning hisob yuritish siyosati shakllantirilishida O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun hujjatlariniga qat'iy rioya etilishini ta'minlash lozim. Korxonaning hisob yuritish siyosatini tanlash va asoslashga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- xo'jalik subyektining mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakli;
- faoliyat turi yoki tarmoq bo'ysunuvi;
- ishlab chiqarishning hajmi va ishchi-xodimlar soni;
- amaldagi soliq tizimi qoidalariga rioya qilish;
- raqobat sharoitida ishbilarmoblik ineksi va ishchanlik faoliyati darajasi;
- moliya-xo'jalik faoliyatining rivojlanish strategiyasi;
- boshqaruv tizimining texnik- iqtisodiy ta'minoti;
- korxonani axborotlar bilan ta'minlashning samarali tizimi mavjudligi;
- buxgalteriya xodimlarining malaka darajasi, korxona rahbarlarining tashabbuskorligi;
- moddiy manfaatdorlik va majburiyatlar bo'yicha moddiy javobgarlik tizimini yaratilganligi

Xulosa: Buxgalteriya hisobini isloh qilish sharoitida pul mablag'lari, kredit muomalalarining hisobi, tovar-moddiy zaxiralar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi, mehnat va ish haqini hisobi, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi kal'kulyatsiyasi kabi muhim hisob obyektlari bilan tayyor mahsulotlar va ularni sotish, moliyaviy natijalarni aniqlash va taqsimlash, hamda moliyaviy hisobotda aks ettirishni o'zaro mantiqiy bog'lash talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, 1996-yil 30-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. «O'zbekiston ovozi» gazetasi 2000-yil 3-iyun.
3. «Mahsulot (ish xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli Qarori 05.02.1999-y.
4. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari.
5. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti 21-son BHMS.